

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA
MADANIYAT INSTITUTI**

**“Ovoz rejissyorligi va kinoteleoperatorlik mahorati”
kafedrası katta o‘qituvchisi Meliqo‘ziyev I. M.**

FOTOKOMPOZITSIYA

**(Ko‘p kameralarda tasvirga
olish uslubi-kino-video texnika asoslari)**

*Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining
kinoteleoperatorlik va tele-radio rejissorligi
bo‘limlari talabalari uchun*



Toshkent – 2012

***O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat instituti
Ilmiy Kengashi tomonidan tasdiqlangan.***

Taqrizchilar:

- | | |
|-------------------------|---|
| A.I.Ismoilov | O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat instituti
“Ovoz rejissorligi va kinoteleoperatorlik
mahorati” kafedrası professori,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi,
davlat mukofoti sovrindori. |
| A.U.Ubaydullayev | O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat instituti
“Kino, TV va radio rejissyorligi” kafedrası
dotsenti, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
yoshlar murabbiysi, rejissyor. |
| A.X.Arziqulov | "O‘zbekfilm” kinostudiyasi oily toifali
kinooperatori. |

MUNDARIJA

KIRISH

FILM ISHLAB CHIQISHDAGI JAXON TAJRIBALARI
(Operator mahoratidagi yangi vositalar)

Videomiksher.....

Bitta kamerada telenovellani

tasvirga olish imkoniyatlari.....

Ko‘p kameralarda tasvirga olish va boshqa

asosiy tezlashtirish uslublari

Magnit lentasiga tasvirni yozish.....

Ko‘p kameralarda filmlarni tasvirga olish uslubi ...

KINOFILM YARATILISHI USLUB VA TAMOYILLARI

(fotokompozitsiya fani asosida) Kinotasvirninig yoritilishi ,

Yoritish xarekteri.

Asosiy yo‘naltiruvchi yorug‘lik.....

Asosiy yo‘naltiruvchi yorug‘likning turli
nuqtalardan qo‘yilganda beradigan yorug‘liksamaralari

To‘ldiruvchi yorug‘lik.....

Kinotasvirga olishning ekspozitsion usuli.....

Kinotasvirga olishda yoritishining eksponometrik

nazorati.....

TABIIY SHAROITLARDA TASVIRGA Olish

XULOSA.....

Ijodiy foto ishlar.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....

FILM ISHLAB CHIQISHDAGI JAXON TAJRIBALARI

(ko‘p kameralarda tasvirga olish, tarixidan...)

1961 y. yozida jurnallarning birida Dj. B.Pristlining “Teper pust uxodit” (“Endi ketsa ham mayli”) nomli pyesasi chop etiladi. Bu kutilmagan xodisa edi. Chunki bunday asarning e‘lon qilinishi barcha ijodkorlarni o‘ylantirib qo‘ydi. Mashxur dramaturg TV xususiyatlarni xisobga olgan xolda asar yaratishi endi tug‘ilayotgan televizion teatrning tasvir yechimi, tasvirga olish uslubi, montaji, aktyorlar bilan ishlash kabi ijodiy kashfiyotlarga chorladi.

1963 yil boshlarida S. P. Alekseyev “Endi ketsa ham mayli” nomli telekartinani tasvirga olishga kirishdi, bu ishni “Mosfilm” qoshidagi “Telefilm” uyushmasida amalga oshirilish rejasida (mamlakatdagi TVda birinchi marta) ko‘p kameralarda tasvirga olish uslubi qo‘llanishi lozim edi. Kino tasmaga olishda ko‘p kameralarni ishlatish Sobiq Ittifoqda misli ko‘rilmagan yangilik bo‘ldi. Kinopavilyon endilikda ijodiy guruxga ajratilgan edi. Markaziy televideniya ikki seriyali 35 mm tasmaga olingan tasvirni namoish etish uchun, yarim yil tayyorlanish ishlariga vaqt ajratilishi, ayniqsa bir soatdan oshiqroq kinofilmni o‘sha davrda bir yoki ikki yil davomida tasvirga olinishini xisobga olsak, yuqorida qayd etilgan muddat nixoyatda qisqaligi ma‘lum bo‘ladi. Umuman televideniye rangli bo‘lmagani tufayli oq-qora tasmaga tasvir tushirilib efirga berilar, so‘ngra yana bir vaziyat, u ham bo‘lsa Goskinoga film topshirilib kinoteatrlarda namoish etish uchun mo‘ljallanganligini ta’kidlash kerak.

Gap shundaki, Televideniye va kinematografiya uchun davr juda murakkab edi.

Televideniye tomoshobini televizion spektakllarga teatr va kino filmlar premyeralarga o‘rganib qolganliklarini aytish kerak. Xozirgi ta’bir bilan aytganda kontenta yoki studiyalar doimo yetishmas edi. Shabolovka telemarkazi yagona bo‘lib, Ostankino

bitishi xaqida faqat orzu qilinar edi, u esa oktabr inqilobining 50 yilligiga bag‘ishlanib keyinchalik 1967 yilda – ishga tushiriladi. Yana bir xaqiqat shundagi 1961 yil Markaziy Televideniye foydalanishi uchun Juravlev maydonining 1 uyida Teatr binosi bo‘lib, keyinchalik teleteatr nomi bilan yuritilib mashxur KVN tadbirlari shu yerda o‘tkazilib borilganligini kekxa avlod yaxshi biladi deb o‘ylaymiz. Lekin Televideniye premyeralarsiz qiyin axvolda edi. Vaziyatni yengillashtirish uchun “Mosfilm” qoshidagi “Telefilm” professional jamoasiga murojat etilishi juda muximligini ta’kidlash lozim. Tasvirga olinadigan film tez va sifatli yaratilishida kinodan past bo‘lmasligini barcha ijodkorlar tushunar edilar. Tasvirga olishda ko‘p kameralar joylashgan uskuna bunda AMGSHKS o‘xshashligi aslida esa “Mosfilm”dagi “ko‘li gul ustalarining” maxsuloti bo‘lganligi ma’lum. Gurux raxbari kinostudiyaning bosh muxandisi A.Visotskiy, uning hamfikri va yelkadoshi S.P.Alekseyev bilan birgalikda yangi uslubni o‘zlashtirishga kirishdilar. Bu uskuna pult bo‘lib tasvirga olish jarayonida eng quyi nuqtada o‘rnatilib joydan-joyga ko‘chirilish imkoniyatiga ega edi.

Uskunaga kabel ulanib bir yoki uchta kinotasmalik kinokameralar bir paytda operatorlar tasvirga tushirishlari uchun mo‘ljallanib, odatdagi maydondagi kabi kadr qurilishlari va kerakli planlarni tanlashlar rejalangan edi. Lekin kinokameralarni operatorlar emas, uskuna, yoki pultda o‘tirgan assistent ishga tushirishi va nazorat olib borishi mo‘ljallangan. Bunda rejissyor ssenariysi xamda uning tasavvuri asosida bir kamerada tasvirni olish to‘xtatilsa uni to‘xtashidan bir necha soniya oldinroq ikkinchisi ishga tushirilib bir paytning o‘zida bir kadrni ikki kinokamera tasvirga barobar olib borilishidan maqsad montaj qilishda qulay bo‘lish uchun shu usul qo‘llanildi. Tasvirni

monitorda ko‘rib kuzatish imkoni bo‘lmasa ham uskuna-pult shunday nuqtaga joylashgan ediki barcha planlarni xech qanday to‘siqsiz kuzatish imkoni yaratilgan edi. Repetitsiyalarda rejissyor kino xamda ovoz operatorlari va chiroq ustalari bilan kinokameralar joylashishini shular qatori o‘zga uskunalar joylashgan nuqtalar, aktyorlar mizansaxnalariga xalaqit bermasligini xisobga olgan xolda rejalandi. Tasvirga olish usuli xuddi kinodagiday uzluksiz montaj qilish uchun xar bir obyektни davomli tushirib borishlari lozim edi.


Filmda S. P. Alekseyevning 1961-1962 yillardagi oldin Telespektaklda band bo‘lgan MXAT aktyorlari qatnashishlari tasdiqlangan. Faqatgina rejissyor ssenariysi yozilib, unda ko‘p kameralarda tasvirga olish usuli va kinoning xususiyatlari e‘tiborga olingan xolos. Aktyorlar bilan repetitsiyalar, operatorlar xamda chiroq va ovoz yozish sex xodimlarining qilajak ishlari, kameralarning vazifalari belgilandi.

Bu ikki hamfikir ijodkor endi matnlar yozilgan katta varaqlarni o‘zlaricha kashf etar ekanlar, ularda aktyorlar mizansaxnalari aniqlanib, tasvirga olish uslublari yozilib, zaruriyat tug‘ilganda kadrlar chizib chiqildi. Aktyorlar uchun tasvirga tushish jarayonida ijro etishga qulaylik yaratildi, shoshish, xayajonga tushishdan xolis bo‘ldilar. Mizansaxnalarda aktyorlar ko‘proq kinoga nisbatan saxna muxitini sezish imkoni tug‘ildi. Filmni tasvirga olish jarayonida xar bir saxnalarni yaxlit tushirish aktyorlarga juda yaxshi imkon berdi, chunki har bir kadr aloxida olinmadi. Sababi ko‘p kameralarda olinishi qulay uslub bo‘lganini isbotladi. Kinematografistlar xam misli kutilmagan yangiliklar kirib kelayotganligini seza boshladilar.

VIDEOMIKSHER (ing VIDEO MIXER)

Ikki va bir necha manbalardan kelayotgan signallarni birlashtiruvchi uskuna. Sinxronlashgan kiruvchi signallarni maxsus effektlar bilan qo'shilishi miksher imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda o'z xizmatini bajaradi. MASALAN: ikkita tasvirni bir-biriga qo'shilishi, uchinchi esa video saxna bo'shlig'iga kiritilishi. Odatda videomiksher sinxron-lashgan signallarni chiqaradi. O'zga manbalardan kelgan videosignallarni asosiya bog'lash imkonini beradi. Xozir-da videomiksherlarda ishlash analogli yoki original raqam-langani signallar faoliyatida bajariladi. Avvaliga bu sistema keng ko'lamli realiti-loyixalarni maxsus jixozlangan maydonda to'xtamasdan bir necha oy mobaynida tasvirga olish ishlarni olib borish uchun ishlab chiqilgan edi. Ishlarning muvafaqiyatli borishi hamda sistemaning za-rurligi Rossiyada qanday bo'lsa, xorijda ham o'zining samaradorligini isbotladi. Yig'ilgan tajribalar asosida kompaniya sistemaning bir necha turlarini ishlab chiqdi, bular DR Creato tomonidan turli television loyixalarni amalga oshirishda seriallar, tok-shou, mini-realitilar uchun mo'ljallangandir.

Xozirgi kunda zamonaviy televideniyeining mashxur formatlaridan Realiti-shou xisoblanadi. Bunday loyixalarini televideniye ishlab chiqarishida ko'p mehnat talab etuvchi moliyaviy sarf-xarajatlar katta mablag' bilan bituvchi hamda bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jumladan katta xajmdagi dastlabki tasviriy material rivojlangan syujetlar mikdor jixatdan ko'pligi; kundalik montaj va master-kassetalarni tayyorlanishi; sutka davomida xodimlarning ishlashi; to'xtovsiz ishlab chiqarish jarayoni; ijodiy va texnik guruxning doimiy muloqatda bo'lishi. Aynan shuning uchun muxim masala bo'lib tasvirga olish va montaj qilishning loyixasida samarali texnologik sxemani tuzishni taqazo etdi.



EDIROL
by Roland

*Seamless mixing of
HD, SD and PC-RGB
video signals*


MULTI-FORMAT VIDEO MIXER
V-440HD

PICK HIT
Broadcast Engineering Magazine
2005


Pick Hit Award From
Broadcast Engineering Magazine
at NAB 2005

Output Status	
Blanking	Flashing out
Light	Output black or white
Turned off	Image from source device is output

Control of the position, size, pan and zoom of the picture-in-picture window via position joystick and size dial. The LOCK button disables the joystick to secure the position/pan of the window on the screen. PinP within the DUBRG section can be used with the keyer simultaneously.



is with the SD Keyer, composite high resolution images on C-Bus and D-Bus with Chroma Key (blue/green) or Luminance Key (black/white). Key with high resolution images and graphics from computer instead of a dedicated graphics generator as a lower



Turns MIDI input/output on or off. With a touch of a button, enter into synchronization mode controlling multiple units of V-440HD in multi-screen applications.

V-LINK enabled Musical Instruments.

Simple control of the position and size of the picture-in-picture window via position joystick and size dial. The LOCK button disables the joystick to secure the position of the window on

Instant recall of favorite PinP patterns with these simple buttons. Memorize up to five presets.

PenP Size	PenP Size
PenP X Position	Horizontal Position of PenP
PenP Y Position	Vertical Position of PenP
PenP Border Size	Border width of PenP
PenP Border Colour	Border Colour of PenP
PenP Shadow	Shadow width of PenP

Composite images on the A-Bus and B-Bus with Chroma Key (blue/green) or Luminance Key (black/white).

SD Key type	Type of Key composition
SD Key Level	Level of Key composition
SD Key Soft Edit	Level of soft edit
SD Key Sub Edit	Level of sub edit
SD Key Sub Edit	Level of sub edit

Tasavvur qiling, murakkab interyerda tasvirga olish maydoni 300 m, 16 aktyorni 50 ta kamerada bir paytda tushirilishini. Tasvirga olish jarayon sutka davomida olib borilishda, har 12 soatda montaj qilingan maxsulotni federal televizion kanal efirga uzatishi uchun shu bilan birga qiziqarli va sifatli asarni tayyorlashni 30 oy davomida xar kuni ishlab borishni ko‘z oldiga keltiring. Mumkin emasday ko‘rinadimi?

Bunday murakkab ijodiy va texnologik masalaning yechimini topish uchun HOPSTEAM kompaniya tomonidan yozib olib davomli montaj qilinishning texnologik sistemasi DRC reator loyixasini ishlab chiqdi. Bunday texnologiyaning g‘oyasi barcha ishlab chiqarish jarayonida eng ilg‘or zamonaviy televizion ovoz yozib olish va montaj qilishda maksimal darajada vaqtni tejash DRC reator sistema ko‘p miqdordagi dastlabki tasviriy materialni qisqa muddatda samarali ish berishi uchun ishonchli texnologik uskunalarni o‘z ichiga oldi.

DRC reator sistemasining faoliyat imkoniyatlari.

- Videoning past ochilishini raqamlash, tashqi vaqtli kodga bog‘lash;
- yozma manbaalarni yaratish buning bilan materiallarni tartiblash va qidiruvni yengillashtirish xamda qidiruvni yengillashtirish bilan birga xamda montaj uchun voqealarni birlashtirishga imkon tug‘dirish;
- bir necha oqimlardan iborat maxsulotni ko‘rish va montaj qilishda tezkorlik va samaradorligini oshirish imkoniyatining mavjudligi;
- taxrir uchun ikki oynalik interfeys Avid montaj sistemasiga o‘xshash va Pinnacle “Goryachiy klavish” (Qaynoq klavish) kombinatsiyalari saqlanganligi;

- montaj natijasini aniq va xar bir kadrgacha oynadan ko‘rish imkon mavjudligi;
- ko‘p kameralar rejimida materialni montaj qilish;
- montajning bir necha versiyasini saqlab qolish, nochizikli montajning sistemasi bilan integratsiyalash; tayyor syujetlarni yakunlangan dastur versiyalarini verstkash;
- materiallarni arxivlashtirish (yakunlangan dasturlar versiyalari, tayyorlangan syujetlar, slotlar, tashqi videomateriallar) kasseta va boshqa texnik turlarga (nositellar)yopishtirish uchun markirovkalarni chop etish;
- xar qanday miqdorda yozilib kelayotgan oqimni boshqarishda ma‘muriychilik hamda foydalanuvchilar, qatnashuvchilar, mavzular, tasvirga olinishi imkonining mavjudligi;
- server guruxida mavjud muammolarni va signallashgan sistemaning barcha komponentlarning ishlashi monitoringi;
- ikki barobarli zaxiralanish xisobiga videoning past ochilishini kafolatlanishi;
- vaqtli shkala xolati saqlangan xolda oqimlar oralig‘iga o‘tish imkonlari; montaj paytida boshqa oqimlarda nimalar yuz berayotganligini doimo ko‘rish imkoniyati mavjudligi;
- Web interfeys orqali tasvirga olingan materialni qidirish va ko‘rish imkoni;
- Web va WAP saytlar uchun avtomatlashgan fayllar tuzish; sistema ishlashida taqsimlanish imkoni;
- Internet vositalari orqali sistemaning ma‘lumot bazasiga kirishlar.

BITTA KAMERADA TELENVELLARI TASVIRGA OLISH IMKONIYATLARI.

Qisqa izox beradigan bo'lsak, yil davomida 100 seriyani ko'p kameralar ishlatmasdan tasvirga tushirish imkoniyatlari quyidagicha.

Tasvirga olish uchta paralell yo'nalishga va uch oqimga bo'linib kuniga uchta rejisser, turli uchta maydonda, turli aktyorlar bilan bitta kamerada tasvirga olinadi.

Uzluksiz xarakat asosiga qurilgan ko'pchilik seriallar ssenariylar, ayniqsa telenovella va "Ko'pik operalar" paralell yo'nalishlarga imkon beradi. Shunda, xar bir oqimni kunda 7 minutlik maxsulot bo'lsa (bir kamera, ayniqsa videoga olinishini xisobga olsak bu real xolat) kunlik xisobda 21 minutni tashkil etadi. Borinki xaftada 4 kun tasvirga olinganda ham (qolgan kunlar repetitsiya va dam olish) yil davomida (52 xafta) 104 seriya xar biri 42 minutdan bo'lishi mumkin. Yana tasvirga olish va montaj ishlarini olib borishlik uchun tayyorgarlik qilishni inobatga olsak demak rejisserlar almashishlari zarur, undan chiqdi ularning soni uchtdan ko'p bo'lishi kerak (aniq raqami tayyorgarlikka rejalangan muddat va montajga sarflanadigan vaqtga bog'liq). Quyida qayd etilgan sxema amaliy misolda beriladi, (bir kamera ishlatilgan ingliz "ko'pik operalar" tasvirga olinganligi). Uch paralell – yo'nalish va uch oqimni xar doim ishlatish shart emas. Syujet rivojlanishida uning chiziqlarining soniga bog'liq. Agarda syujet 2-3 yetakchi qaxramonlar atrofida qurilgan bo'lsa tasvir paralell-yo'nalishni ikkitadan ortiq bo'lmagan oqimga bo'lish mumkin.

Rejissyorlar almashishi haqida AQSH praym-taym seriallari:
(eng ko'rimli vaqt)

Amerika praym-taym drama seriallarini tasvirga olish klassik sistemasi quyidagicha. Seriallar ko‘p yillar davom etishi mumkin (ba‘zilari) 10 yil bir mavsumda (10-11 oy atrofida) odatda – kinotasmaga 20-24 xar biri 45 daqiqalik seriya olinadi, rejissyorlar esa doimo o‘zgarib boradilar. Xar bir seriya ustida olib boriladigan umumiy rejissurani ishi unda tayyorgarlik jarayoni, tasvirga olish va montajga ketgan vaqt bir yarim ikki muddat bo‘lsa, bir seriyani tasvirga olish taxminan 6-10 kunni tashkil etadi. “Rejissyorlik” montajida (director’s cut) prodyuser nazoratidan o‘tadi, so‘ngra yakuniy montaj jarayoni zarur bo‘lganda ba‘zi saxna yoki kadrlarni qaytadan tasvirga olishdir.

Navbatdagi seriyaning ssenariysi tayyor bo‘lgandan so‘ng “preprodakshn” – ya‘ni, tayyorgarlikdan o‘tadi. Bunga 8 kunlar chamasi vaqt ketadi.

Tasvirga olish, vaqti odatda 8 kun (8 kun - asosiy gurux va har doimgiday 2 kun – parallel second unit – ya‘ni qaytarikka ajratiladi. Busiz tasvirga olish jarayoni 8 emas 10 kunga cho‘ziladi.

Bundan keyin Editor (montaj rejissyorlari) birlamchi montajga odatdagiday 7 kun ajratilsa, qolgan sof yoki yakuniy montajda rejissyorlik va prodyuserlarning ko‘rsatmalarini tuzatishga 7 kundan 2 kuni ajratiladi. Bunda prodyuser tomonidan tasdiqlash yoki qisqartirish kabi talablar bajariladi. So‘ngra odatdagiday 12 dan 20 soatgacha (o‘rta xisobda 16 soat bo‘lishi mumkin) ranglarni tanlashga ajratiladi.

Tovush ustida ishlashga 7+3 kun (3 kun svedeniye ya‘ni muvofiqlashtirish) boshlanishida zaruratga qarab ba‘zi saxnalari qaytadan ovoz yozishga beriladi. 7 kun mobaynida ovoz yozish jarayonida zaruratdan kelib chiqib kompozitor yangi kuyni yozadi.

Shunday qilib, serial, epizod va xokazolar asosiy bosqichlari, ya‘ni – postprodakshn – yakuniy jarayon xisoblanadi.

Tasvirga olib bo'lgandan so'ng $6+7+7+3=23$ kun, shulardan 16 soati rang tanlashga beriladi. Berilgan izoxlarda postprodakshn atigi 2,5 hafta muddati xaqida aytilgan, - demak qaysidir ishlar parallel bajarilib boradi. YA'ni tasvir montaj ishlari yakunlanmasdan turib tovush va ovoz yozish ishlari boshlab yuborilgan. (shunda ssenariy kelib tushgandan keyin so'ngra ijodiy ishning muddati va sarflangan vaqt $8+8+23=39$ sutka, xatto 2,5 hafta bo'lganda ham – 17 kun, postprodakshn vaqti – 33 kun). Shu bilan birga ishga sarflangan umumiy vaqt 24 (ba'zida) kunni tashkil etgan. (undan chiqdi epizod ustidagi ish parallel tashkil etilib ikki gurux montajchilar va ikki gurux ovoz rejissyorlar ishlashgan).

Bir kamera bilan ishlashda chiroqni aniq qo'yish va xar bir kadrning kompozitsiyasini bajarishga imkon berishi, hamda qator kadrlarni tasvirga tushirishga qulay bo'lib, bunda yuzma-yuz dialogni olish ko'p kameralarni ishlatishdan ko'ra yengillashtiradi.

Ko'p kameralar bilan tasvirga olishda ishni jadallashtiradi, ayniqsa teatr aktyorlarining saxnalarni ijro etishlariga qo'laylik yaratadi., shu bilan birga operatorga chiroq o'rnatish, kadrlashtirishni anchagina qiyinlashtirib, mumkin bo'lgan nuqtalarni, kameralarni joylashtirish imkonlari kamayib ketadi (odatda kameralarni devorga qarab uzunasiga joylashtiriladi) devorga dekoratsiya umuman qurilmaydi. Bundan tashqari tabiiy interyerlarda ko'p kameralarni ishlatish qiyinchilik tug'diradi (shunday xolatlar bo'ladiki ularni joylashtirish imkon bo'lmaydi). Praymtaym seriallar tasvirga olinishida ko'p kameralarda olish faqat zarurat bo'lsagini ishlatiladi.

Albatta zamonaviy praymtaym seriallarni zamonaviy texnik uskunalarni qo'llamasdan iloj yo'q-ayniqsa kompyuter nochiziqli (nelineyniy)montaji shular jumla-sidan.

Praymtaymning yangi avlodi (24, Lost, Prison Break va boshqalari) ko'p kameralarda tasvirga olish xamda bir paytda ikki brigada ishlash usuli qo'proq qo'llaniladi.

KO‘P KAMERALARDA TASVIRGA OLISH VA BOSHQA ASOSIY TEZLASHTIRISH USLUBLARI.

Seriallarni tasvirga olishni tezlashtirish uslublaridan asosiylari quyidagilar:

1. Turli saxnalarni (paralell) bir paytda tasvirga olish.
2. Bir necha rejisserlarning uzluksiz bir-biri bilan almashib borishlarini (rejisserskiy pult) xisobga olish.
3. Kadr va saxnalarning vaqt davomiyligini ko‘paytirish, kadrlashtirishni jo‘nlantirish (saxna ichida turli planlarni minimallashtirish).
4. Ko‘p kameralarda tasvirga olish.
5. Mexnatni taqsimlash – postanovkachi rejisser, televi-zion rejisserlar, repetitorlar, montajchilar, aniq rejalash.
6. Zamonaviy texnik vositalar-kompyuter montaji, may-donda ovoz yozib olish, videoda tasvirga olish, diskka yozib olish, maydonda birlamchi montaj qilish.
7. Ish kunini uzaytirilishidan yaxshi natijaga erishish.
8. Pavilyonlardan samarali foydalanish.
9. Seriallarni bloklab tasvirga olish.

Ko‘p kameralarda tasvirga olish uslubining mohiyati shundaki u faqatgina ishlab chiqarishni tezlashtirishdan tashqari xar bir seriyaga sarflanadigan mablag‘ni kamay-tiradi.

Ko‘p kameralarni ishlatishda uning makoni asosan seriallarni tasvirga olish – bular “ko‘pik operalari”, tele-novellalar va sitkamlar. Janrning rivojlanishi tarixi, kompyuter montaji kashf etilmasdan, xatto videomagni-tofonlar yuzaga kelganga qadar boshlangan. Shuning uchun xam real vaqtda montaj qilish uslubi keng tus olgan bo‘lib, maydon o‘zida videomiksher yordamida (swicher) tasvirga olish, kerakli videokameraning signali qabul qilinib master kassetaga yozib boriladi. Agarda barcha

kameralardan signallar yozib borilsa, montaj paytida o'zgartirishlar kiritish imkoni bo'lib, bu esa na faqat tasvirga olish ishlarini jadallashtiradi, xatto jarayon davomida montaj ishlari borishida montajerlar sonini kamaytirishga qulaylik tug'diradi. Bu televizion uslubning xususiyati, ko'p kameralarda maxsus effektlarni ishlatish (tasma yoki video) bunda montaj ishlari asosan keyin olib borilishi, bilan farqlanadi.

Natijada tasvirga olish tezligi oshadi, chunki ko'pchilik saxnalar butunligicha olinadi. Lekin tasvir imkoniyatlari odatdagiday tubdan cheklanadi, bu janrlarning ko'pchilik seriallaridagi "ko'pik operalar" xususiyatiga mavjud bo'lgan xol. Kadr kompozitsiyaning sifatsizligi, xarakatdagi kadrlar kamligi, yoritishning sifatsizligi – maydon tekis xolda chiroqlar bilan yoritilganda, rezkost chuqurligi juda teran bo'lishi – shular xisobiga kartinka (tasvir) xaddan tashqari yuzaki, montaj ritmi sust bo'lishiga olib keladi. Tasvirlar esa yangiliklar yoki televizion shoularni eslatadi. Sifatsizlik ko'p kameralarda tasvirga olish oqibatida emas, boz ustiga praym-taym seriallarida ko'p kameralarda ishlashda emas. Aytaylik Ryazanovning "Ironiya sudbi", "Garaj" filmlari uchta kamerada tasvirga olingan. Natija esa juda ham ijobiy bo'lgan.

So'ngi paytda ikki kamerada tasvirga olish AQSH va Angliyada keng qo'llanmoqda. Bunda nafaqt maxsus effektlar qo'llanishidagina emas, xatto diologlar ko'p saxnalarda ana shu usulda olinadi. Tabiiy, sifat tushib ketadi, buning sababi tayyorgarlik jarayoni to'la o'tilmasligi, saxnalarni "butunlay" qilib tasvirga olish, xamda montajning sifatsizligi va nixoyat maydonda videomiksherni to'la ishlatishdadir.

Ko'p kameralarda tasvirga olishning samaradorligining sustlashishi, kundalik olinajak saxnalar soni va xar bir saxnaning

vaqt miqdorini aniq bo'lmashligi. Yana bir muxim tomoni kun davomida joydan-joyga ko'chib o'tishdadir, 10 ta uzun saxnalarni tasvirga olish, 20 ta qisqa saxnadan ko'ra vaqt jixatdan ancha tejimli. Ilgarilari tasvirga olish ancha samarali edi, chunki saxnalar vaqti 3-4 minutdan sal ko'proq bo'lgan. Xozirda esa saxnalar o'rta xisobda 1,5 minutdan kam bo'lsa yanada yaxshi. A'lo yoki yuqori sifatli tasvirni ko'p kameralarda olish bitta saxna uchun bir soatdan kam bo'lmashligi lozim (yarim soat repetitsiyaga, yarim soat tasvirga tushirishga) 1-2 minutlik saxnani bitta kamerada tasvirga olish 2 soatdan kam bo'lmagan vaqt sarflanishi yarim soat repetitsiyaga, bir yarim soat tasvirga olishga beriladi.

Agarda saxnalar qisqa bo'lib, tasvirga olish soni ko'p bo'lsa, unda sifatsizlik sezilarli darajada ko'zga tashlanadi, u xolda repetitsiyalarni qisqartirishga to'g'ri keladi. Masalan saxnaga zarur bo'lgan 30 minut-undan 10 minuti chiroqlarni o'rnatishga va belgilar quyishga, 10 minut akterlar va kameralar repetitsiyasiga, 10 minut bir necha dubl olishga ajratiladi.

Pavilyonda olingan saxnalar, uzun parchalar yoki butunlay tasvirga tushirilsa pavilyonlarda olingan tasvirlar ekran vaqtining 80 minuti bo'lsa kuniga 32-34 minutni tashkil etadi. Bir kun 32 minut nima degani? Agarki saxnaning davom etilishi 1 minut bo'lsa, 21 saxnadir. Ish kuni 12 soat bo'lgan taqdirda bir saxnaga 20-30 minut sarf etilishi mumkin! Tasvirga oluvchi brigadaning (jamoaning) ishini yengillashtirish uchun, ssenariy shunday yoziladiki, ularda uzun saxnalar bulib tasvirga olish jarayoni yengillashtiriladi. YA'ni misol uchun 30-ta saxna o'rniga, bir seriya endi 10-15 uzun saxnalarni tashkil etib, so'ngra mayda saxnalarga bo'linib, va ular aralashtirib tashlanganini kurish mumkin. Natijada bunday seriallardan yaxshi taassurot qolmaydi.

BN serialinii tasvirga olishda 6 ta rejisser almashib ishlaganlar (misol uchun 3 ta rejisser pavilyonlarda tasvirga olishda qatnashib xar bittasi o'rta xisobda o'zinig blokiga bir hafta ja'mi ikki xaftagacha vaqtni tayyorgarlik ishlariga sarf etganlar).

Albatta rejisserlar va operatorlarni yuqori malakali bo'lishlari katta ahamiyatga ega. Ayniqsa ko'p kameralarda ishlashda muxim rolni o'ynaydi, chunki ko'pchilik kinomaktablarda ko'p kameralarda ishlash uslubini o'rgatish nixoyatda sust va sifatsizligini aytish kerak. Ko'pchilik rejisserlar va operatorlar (ko'pik operalarni) seriya olish oralig'ida teleshou dasturlarini xam tasvirga oladilar. Ular kino vosita tilida fikrlarini ifoda etolmaydilar. Xatto bitta kamera bilan tasvirga tushirishni xush ko'radilar, chiroq qo'iishda esa obyektni maksimal yoritishga xarakat qiladilar, kadrning estetik nozikligini umuman esdan chiqarib qo'yishadi.

Bednaya Nastya (Bechora Nastya) seriali xaqida bir shingil so'z. BN tasvirga olinishda ikkita pavilyondan foydalanishgan, lekin tasvir ishlari izchillik bilan olib borilgan – bitta pavilyonda tasvirga olinish jarayoni davom etsa, ikkinchi pavilyonda ertangi kun uchun keyingi tasvir olish ishlari uchun dekoratsiyalarning montaj ishlari olib borilgan.

BN tasvirga olinishda xar smenaning vaqti 12 soatdan kam bo'lmagan (16 va undan xam ko'p) shuning uchun xam ikki brigada (jamo) operatorlar ish olib borganlar.

Buning sababi shundaki ko'p saxnalar pavilyonda olinib, dubl sonlari 5-6 bo'lib, ba'zida undan ham ko'p bo'lgan.

Bulardan tashqari BN tasvirga olinishda rejis-serlarning mexnatini qo'shimcha taqsimlash yo'li ishlatilgan. Rejisserlardan biri Petr Shteyn faqat aktyorlar bilan ishlagan xamda

mizansaxnalarni qo'ygan. U kamera bilan umuman ishlamagan, bu vazifani boshqalar ya'ni televizion rejisserlar bajarganlar.

MAGNIT LENTASIGA TASVIRNI YOZISH.

Xozirgi davrda magnit tasmasiga yozilgan oq-qora va rangli tasvirning yuqori sifatli bo'lishi xamda uslubning operativ qulayligi ta'minlanganligi televideniya da reportajlar va televizion filmlarni ba'zilar da magnitofilmlar deb xam yuritiladi.

Xozirgi kunda tasvirni magnit tasmasiga yozish kinematografiya da qo'shimcha operatsiya (tadbir) va zaruriy nazorat uchun qo'llanadi.

Magnit tasmasiga tasvirni yozish badiiy filmni tasvirga olish, uni qo'llashda, tasmaga olinishi bilan bir paytda, tasvirni kuzatib borish imkoni xamda dublning sifatini zudlik bilan tekshirish kabi xususiyati mavjud. Kinokamera tasvirga olishdan oldin repetitsiyalarni yozib olish moxiyati xam undan kam emas.

Xozirgina tasvirga olingan maxsulotni zudlik bilan operativ ko'rish imkoniyati rejisser va akterning ijodiy ishlarini ko'rib taxlil qilishda qo'layligini xamda rejisserning barcha ko'rsatmalarini yaqqol namoish qila oladi.

Ko'p kameralar bilan tasvirga olishda paralell yozib borish, tasvirni nazorat qilishda juda xam muximligini aloxida ta'kidlash kerak, chunki uzun va murakkab saxnani oldindan montaj qilinadigan epizodni ko'rib xulosa qilish imkoni mavjud.


Tasvirni magnit lentasiga yozish, tasmaga tasvir tushirishdan oldin akterlarni tanlash jarayoniga xizmat qilaturib, bir paytda tannarxini tushirish va ishni jo'nlashtirishga, shu bilan birga jadallashtirishga yordami tegadi. Chunki videomagnitofonlar telekameralarning signal uzatishiga moslangan bo'lib, bu esa barcha televizion vizirlar kabi, kinotasvir apparatiga joylashtirilgan, natijada kinematografda uni qo'llash, ya'ni magnit yozuvi tasvirni olishga to'siklik qilmaydi.

1-6 rasmda videomagnitafon “Slavutich” apparatura-sining kompleks (xususiyatlar yig‘indisi) umumiy mazmuni (sxema) berilgan. 1 kinotasvirga apparatdan signal 2 televizion vizir bilan bog‘langan bo‘lib rejisserning pultiga uzatiladi. 3, 4, 5 nazorat ekranlarida aynan o‘sha tasvir ko‘rinadi. Kameradan nazorat ekraniga kirib kelayotgan tasvirni rejisser montaj qilishida yirik tasvir zarurligi dramaturgik vazifa bilan bog‘liqligi bo‘yicha ijodiy ishlarni olib boradi.

KO‘P KAMERALARDA FILMLARNI TASVIRGA OLISH USLUBI.


Ko‘p kamerali uslub asosan televideniye uchun olingan film va teatr spektakllarini tasvirga olishda ularning tan narxini kamaytirish va ishlab chiqarishni jadallashtirishga qaratilgan. Tasvirga olish maydonida bir paytning o‘zida (ko‘p xolda uchta) televizion vizir o‘rnatilgan kinotasvir apparatlaridan foydalanishga asoslangan.

Barcha kameralar televizion nazorati ekran vizirlari rejissarlarning pultida joylashgan bo‘lib, apparatlar joylashtirishida bitta epizodni turli nuqta va ko‘lamda (masshtab) tasvirga olish imkonini beradi. Rejissarlar boshqaruv pulti orqali akterning ijro etayotgan saxnasini to‘xtatmagan xolda, turli kameralarni ishga tushirishi mumkinligi va oldindan tanlangan yirik, o‘rta, umumiy planlar almashuvi jarayonida tasvirni kinotasma-siga tushirish, xamda uzun miqdordagi epizodning ilk (qoralama) montajini o‘tkazishi mumkin. Tajribalar shuni ko‘rsatdiki ko‘p kameralarda tasvirga olish uslubi, ijodiy guruhning ish samarasini bir necha barobar ko‘paytiradi. Shu bilan birga bir necha kameralar bilan tasvirga olishda tasvirga olish obyektiga nisbatan turlicha joylashgan bo‘lsa, u xolda tarqalgan chiroqni ishlatish, bu borada orqa chiroqning imkonini kamaytiradi, umuman keskin yo‘naltirilgan kinematografik yoritish imkoniyatini cheklaydi.



2-rasm. Ko‘p kamerada tasvirga olishning umumiy sxemasi.

2 rasmda ko‘p kamerada tasvirga olishning umumiy mazmuni (sxema) keltirilgan, 3 rasmda 3 kamera foydalanishidagi apparaturalar yig‘indisi (kompleks) tarkibida umumiy mazmuni (sxema) ko‘rsatilgan. Shu maqsadga xizmat qiluvchi turli mamlakatlarda ishlab chiqarilayotgan uskunalar (apparaturalar) o‘zlarining tuzilishlari va tasvirga olish uskunalar soni, foydalanadigan optikasi, nurlarni bo‘luvchi shaxobchalari (sistema) u yoki bu farqi bilan ajralsada, lekin prinsipial nuqtai nazardan umumiy mazmuniga (sxema) javob beradi.



Umumiy mazmunda (sxema) koʻrsatilgan: 1, 2, 3 - kinotasvir uskunalari (appartura) televizion vizirlar bilan xar bir kamerada nazorat ekrani mavjud boʻlib, 4, 5, 6 - rejisserning pultida kameralarning nazorat ekranlari aks etgan. Ish paytida barcha ekranlarda kuzatish nuqtasi kameralardan kadr chegaralari tasvir tinimsiz kelishini namoish etadi.

Rejisser pultidagi boshqa yoʻlga ulash (pereklyuchatel) 8 orqali xar qaysi kamerani ishlatish imkonini beradi. Bir paytning

o'zida televizion tasvir qaysinisidan bo'lishi qat'i nazar, asosiy ekranga 7 berilib unda esa avtomatik ravishda kinotasmaga olinishi mumkin bo'lgan tasvir doimo mavjuddir.

Umumiy mazmunda (sxema) komplektning jo'n bo'lishligi uchun qo'shimcha uskunalari ko'rsatilmagan, ularda esa barcha (apparatlar) uskunalarining tasmadagi tasvirlari uchun sinxron belgilari, fonagramma va videoyozuv xamda rejisser va kameralardagi operatorlarning telefon aloqalari ko'rsatilmagan.

Ko'p kameralarda film olish, uchun ko'pchilik mamlakatlarda o'ziga xos sanoatda uskuna va jixozlar bilan ta'minlanmoqdalar, ularning barchalari umuman qayd etilgan prinsiplar asosida yechimini topgan. Shulardan, xorij sistemalari ichida keng tarqalgan uskunalaridan "Elektronik kam" ARRI firmasi (GFR) ichida 35mm "Arrifleks" yoki 16 mm kinotasmaga mo'ljallangan. Kinotasmali "Sistema-35" (AQSH) "Mitchell"-35mm "Mark-P" kinotasvir apparati asosida yaratilgan bo'lib o'sha firmaning maxsuloti.

KINOFILM YARATILISHI USLUB VA TAMOYILLARI

(fotokompozitsiya fani asosida)

KINOTASVIRNINIG YORITILISHI.

Kinotasvir yoritilishi bu – suniy yoki tabiiy xarakatdagi turli shakldagi obyektlarni yoritishdir. Bu yorug‘lik orqali nur sezuvchi materialda, to‘g‘ri eksponometriya qilinganligi natijasida chiziqli vazn va shaklga ega predmetlar, rang va jilolar, nixoyat ularning ust tuzilmalari badiiy va texnik vazifani bajarishni ta‘minlaydi.


YORITISH XARAKTERI.

Kino yoritishning vazifasi olingan tasvir xarakteri ikki turga bo‘linadi – **yorug‘lik** va **qorong‘ulik** xamda **jilolilik** (svetotenevoye i tonalnoye).

Yorug‘lik va **qorong‘ulik** yoritilishda tasvir obyekti yo‘naltirilgan yorug‘lik bilan berilib, unda nurlar obyekt elementlari (bo‘laklari) teng burchaklarga tushish xarakterlariga ega. Tasvirdagi shakl va obyekt bo‘laklarining vazni va shakli asosan o‘sha elementlarning yoritilishi ko‘z ilg‘aganligi uchun tasvirga olinib, yorug‘lik nurlarining turli yo‘nalishiga mo‘ljallangan nisbiylik, xamda bo‘laklarning (element) yorug‘lik koeffitsiyenti turliligidadir. Tasvirga olinadigan obyektning ust tekisligi tasvirga yaxshi tushishining oqibatida yuz beradi. Tasvirga olinadigan ba‘zi obyektlarning ranglarini (jilo) zarur xollarda voqeylikni yaxshi namoish etishda kinooperator uchun qo‘shimcha imkoniyatlar xam beradi.

ASOSIY YO‘NALTIRUVCHI YORUG‘LIK

Asosiy yo‘naltiruvchi yoritish (tasvirlovchi yoritish, xal etuvchi yoritish) kadrda obyektidagi syujetning muxim nitalari va ko‘proq aktyorning qiyofasiga yo‘naltiriladi. Odatda yoritish yo‘naltirilgan yorug‘lik orqali amalga oshariladi, (personaj) qaxramonning barcha xarakat fazalarini doimo qo‘llab turadi. Ma‘lum darajada yorug‘likning samarasiga (effekt) erishilsa, yo‘naltirilgan yorug‘lik tasvirga olinayotgan obyektning kichik qismiga tushishi mumkin. (yuzning bir qismiga). Yoritish miqdori bu xolda odatda o‘zgarmaydi.



X-rasm. Asosiy yo‘naltiruvchi yorug‘likning turli nuqtalardan qo‘yilganda beradigan yorug‘lik samaralari (effektlari).

Ko'pchilik xollarda asosiy yo'naltirilgan yorug'lik obyektga bir muncha yonidan va kinotasvir apparaturasining optik o'qiga nisbatan yuqoridan $30-60^{\circ}$ burchakdan tushadi. Aynan shu burchaklardan yorug'-qorong'ulik yoritilishi yo'naltirilgan yorug'lik tasvirga olinayotgan obyektning bo'laklariga beriladi. Odatda asosiy yo'naltirilgan yorug'likni ta'minlash maqsadida bitta yoritish chirogi (pribor) ishlatiladi, soyalar chiziqlari parchalanmasligini to'liq ta'minlaydi.

Umumiy ko'rinish (plan) yoki aktyorlarning sezilarli joylarida o'zgarish bo'lsa, tasvirga olinishda bir necha yoritish chiroqlari qo'llaniladi. Asosan yo'naltirilgan yoritish bo'lib, parallel yo'naltirilgan yorug'lik yaqinligi, yoritish uchun Frenel linzalar mavjud kinoprojektorlar hamda yo'naltirilgan sochiq yorug'lik beruvchi yoritish uskunalaridan foydalaniladi. Yoritish miqdori asosiy yo'naltiruvchi yorug'likni bo'lib yoritishning ekspozitsion nazoratini baholash mezonidir, yoki ba'zida uni xal etuvchi nuqta kalit (klyuch) deb yuritiladi. Tashqarida (naturada) tasvirga olishda yo'naltiruvchi yoritish rolini odatda quyosh nuridan foydalaniladi.



TO‘LDIRUVCHI YORUG‘LIK

To‘ldiruvchi yorug‘lik (ekspozitsiya yorug‘i) tasvirga olinuvchi obyektни bir meyorda yoritadi.

Tasvirga olinayotgan makonninng qaysidir darajada yoritilishi, detallarini ishlashda zaruriy va qoniqarli natijaga erishishda hamda ranglarning ko‘rinishini va tasviriy obyektlarning detallarini ko‘rish imkonini beradi. Yoritish uskunalari bergan nurlarning asosiy yo‘nalishi bu to‘ldiruvchi yorug‘lik bo‘lib ular taxminan kinotasvir apparatining optik o‘qiga paralell joylashgan bo‘ladi. Shu bilan birga qayd etilgan yo‘nalishdan farq etishi mumkin, chunki to‘ldiruvchi yorug‘lik ko‘rinadigan soyani (qora) bermaydi. Yorug‘lik qorong‘i yoritish ishlaganda to‘ldiruvchi yorug‘lik ko‘p xolda bo‘lmaydi. To‘ldiruvchi yorug‘likni yaratish uchun tekislovchi yorug‘likka qo‘llangan chiroq uskunalarini ishlatiladi.

To'ldiruvchi yorug'likning yana bir turi yuqorigi yorug'lik bo'lib, odatda katta dekoratsiyalarga, ya'ni tashqari (natura) manzaralarni taqlid etishda ishlatiladi. Uning vazifasi – tashqi manzaraga xos havo bo'shlig'ining kengligi, umumiy ko'rinishdagi (plan) joylashgan predmetlarning yoritilishiga xizmat qiladi. Yuqori yoritishni ta'minlashda ko'p xolda oynavand cho'g'lanish lampalari va yo'naltirilgan siyrak uzun o'lchovli cho'g'lanish gallogen lampalari ishlatiladi.

Modellashtiruvchi yoritkich obyektning soya tushgan tomonlarini nisbiy yoritib, zarur ranglar va zichligini yartishda dog'lar va jilvalar orqali yuzga keladi. Modellashtiruvchi yoritish uchun asosan Frenelning linzalik proyektori qo'llanadi.

Chiziqli yoritish uchun (kontrovoy) tasvirga olinayotgan obyektни orqa tomondan yoritadi, odatda yuqoridan obyektning bo'laklarini chizgi chegaralarini pardoqlashga xizmat qilib, ular o'z navbatida asosiy rangdan (fon) old tomonda joylashgan bo'lib rang va jilolar yaqinligini to'ldiradi.

Tasvirga olinayotgan obyektning orqa tomonidagi yorug'lik asosiy yo'naltiruvchi yoritishning miqdoridan ikki yoki uch barobar ortiqcha bo'lishi mumkin. Chizgili yoritishi uchun ko'pchilik xolda Frenelning linzalik kinoprojektori ishlatiladi, uzoq masofalarga maxsus «Kontrsvet» proyektorlari qo'llanadi.

Asosiy rang, yoritilgan tekislikni, saxna orqa pardalarini va devorlarni, bunda yorug'likni teng tarqatishga xizmat qiladi. Asosiy rang yoritishni amalga oshirish uchun tarqoq yoritkich uskunalaridan, uzoq masofalarni yoritishga esa Frenelning linzalik Kinoprojektorlari yoki oynavand lampalik uskunalar ishlatiladi. Samara beruvchi yoritkich (effekt) dekoratsiyalar (yoki bezaklar) va tasvirga olinayotgan obyektlarda kerakli ravishdagi shakllar va jilolarni yuzaga keltiradi. Zichlik va rang odatda

kadrdan tashqaridagi taxminiy xarakatning samarasini oshirish uchun yoritish manbaalari sifatida xizmat qiladi.

Samara (effekt) beruvchi yorug'likka erishishda Frenelning linzalik kinoprojektori qo'llanadi. Tasvirga olinishda qayd etilgan yoritish uslublarining barchalari qo'llanishi shart emas. Ko'p xollarda ikki yoki uch xili yetarlidir. Jilolar yoritishini yaratish uchun bita to'ldiruvchi yoritish uskunasining o'zi kifoY. Ba'zida bitta yoritish uskuna yoki bir nechasi ikkita yoritish samarasini ta'minlash manbaasi sifatida xizmat qilishi misol uchun tekislovchi va to'ldiruvchi hamda asosiy yo'naltirgan nur xar va nixoyat samarali (effektli) yoritishlardir.

Tashqarida tasvirga olish va tabiiy interyerlarda odatda sun'iy yoritishlar qo'llansa tekislovchi yoritish rolini o'ynaydi shu bilan birga obyekt soyalari, yorug'likning kamligini ko'paytiradi xolos.

KINOTASVIRGA OLISHNING EKSPOZITSION USULI.

Yaxshi chop etiladigan va to'g'ri eksponometriya qilingan kinonegativ deyilishi mumkin, qachonki optik zichlangan uchastkada tasvirga olingan qaxramonlarning qiyofalari oq bo'lishm intervali 0,8-1,0gacha bo'lishi kerak. Syujeti muxim bo'lgan soya va yorug'lik zichligi negativ tasmaning egrilik tavsifi (xarakteristika krivoy) shartli ravishda to'g'ri chiziqlikka qabul qilinishdan chiqmasligi kerak.

Inson yuzida qayd etilgan uchastkada optik zichlikni olish uchun aks berish ko'effetsenti 0,3 bunda yorug'likni sezuvchanligi S bo'lgan negativ kinotasmaning yaxshi chiqarilishi va tasvirga olinish F kadr kinokamera ochiq burchak obtyurator va samarali (effektini) obyektivda uning nisbiy teshigi $I:n$ yuzning uchastkasi berilgan yorug'lik quydagiga barobar:

$$E_{06} = 95000 F n^2 E$$

$$a S$$

Tasvirga olish tezligi 24-25 kadr/s obyurator ochiq burchagi 160-180° bo'lsa quyidagi formulani beradi

$$YE_{06} = 13400 n^2 E$$

$$S$$

Keltirilgan bu formula ko'pchilik kinooperatorlarning nazariy xisobi natijasi bo'lib, ularni tekshirish va tadqiqotlarini o'rganishdan kelib chiqildi. Formulada koeffetsent zaxirasi 1,5-2 xisobga olingan. Shu formula bazasida tuzilgan quyidagi jadval. Bunda, aytaylik gorizontal yotiq yoki tik tushgan yo'nalish emas, balki perpendikulyar yorug'likning axamiyati keltirilib, uskunada tekislikning yorug'likni qabul qilish maksimal berilishi u esa o'z navbatida yoritish uskunasiga yo'naltirilganligi natijasida xal etuvchi yorug'likka erishiladi.

KINOTASVIRGA Olishda Yoritishining Ekspometrik Nazorati

Kinotasvirga bo'lgan asosiy talab shundan iboratki, butun film davomida har bir qatnashayotgan qaxramonning yuz tasvirini berishda doimiy zichlikni saqlab borishdir. Bu talab filmning barcha saxnalariga ta'lluqli, uning syujetni yoritilishidan qat'iy nazar o'zgarish bo'lishida (yorug'lik «kunduzmi» yoki yoritilish «kechani» ifoda etishidami) faqatgina yoritishning umumiy farqlanuvchi (kontrast) tomoni o'zgaradi, shunda ham yorug'lik va uchastka hamda soyalar teranligi undagi yo'nalishlarning taqsimlanishini e'tirof etish zarur. Yuzdagi, xattoki kichkina uchastkalar bo'lsada asosiy yo'naltirilgan xal etuvchi (klyuchevoy) yoritish uslubi qo'llangan taqdirda ham o'zgarish yuz bermaydi.

Albatta, ba'zi xollarda Maxsus samarali (effekt) yoritish uslubini qo'llanishi negativda yuz tasvirining zichligi kamaytirilishi, ba'zida tasmaning pardasi (vual) darajasigacha zichligini tushurish yoki misol uchun tasvirning toza sharpasini olishga erishish mumkinligini aytish kerak.

Tabiiy, inson yuzi qoramtir yoki pardoqlangan xolda negativda zichlik kamayganligini ifoda etishi, oq rangli yuzini, bir paytning o'zida kinotasvirga olinishda yorug'likni eksponometrik nazorati asosida sun'iy yoritish qo'llansada, operatorning yuzga tanlagan yoritish miqdorini doimo saqlab borishga qaratilgan tadbir.

Tasvirga olinayotgan sahnaning yoki bo'laklarning yoritilishi va yorug'ligi, operator tomonidan o'z fikri hamda talabga tayanib, tasvirga olingan materialni kelajakda foydalanish extimoli ham nazarga olinib uning yoritilishi va yorug'ligining muvozanatini (balans) saqlab borish uning zimmasiga yuklanadi.

Tabiiy yoritishda kinotasvirga olinayotgan jarayonda ba'zida obyektning yoritilishi yoki yorug'likni nazorati sezilarli o'zgarishlarni beradi. Nazorat natijalari asos bo'lib endi obyektivning teshigiga nisbatan o'zgartiriladi.

TABIY SHAROITLARDA TASVIRGA OLISH.

Tabiatda tasvirga olishda kinoplyonka xox rangli xox oq-qora bo'lsin kompozitsiyani tasviriy ifodasini ochishda yorug'likning roli juda katta. Rangli kinoplyonkaga tasvirga olish paytida tushayotgan yorug'likning rangi, soya va rang o'rtasidagi o'zgarish, tasvirning koloristik xal kilinishida asosiy vazifani bajaradi. Tabiatda tasvirga olishdan oldin, kinooperator tabiiy yorug'lik rangining o'zgarib turishini inobatga olishi va texnologik tomonlama buning yechimini topishi zarur.

Tasvirga olish texnologiyasini ko'rib chikishda operator fotografiyada ishlatilgan va ishlatilib kelinayotgan yoritish turlari nazariyasini (risuyushiy, fonovoy, modeliruyushiy, zapolnyayushiy, kontrovoy) yaxshilab bilib olishi zarur.

Tabiatda rangli kinoplyonkaga tasvirga olishda soya va koloristika prinsiplari tasvirga olish yunalishi o'zgarishidan qat'iy nazar saqlanib qolishi zarur. Chunki kinoni tasvirga olayotgan paytimizda koloristik ketmaketlik planlarga moye kelmasa xatto chiroyl manzaradan ham voye kechishimizga tugri keladi.

Tabiiy yorug'likning xarakteri nafaqat uning rangida, uning to'g'riligida yoki uning yumshoqligida balki u bopsha xarakterga ham egadir.

Masalan:

1) quyoshning yuqori xolati bir obyektida olinayotgan planlarning turli xil masshtabliligini oshirishimizga imkoniyat beradi.

2) tabiiy yoritishda yorug'likning rangining xaqqoniyligi va oddiyligi urtasidagi munosabatdlar soya va yorug'lik urtasidagi o'tishda yaqqol ko'rinib turadi.

Bu ranglarning soya va yorug' urtasidagi xaqqoniyligi tasvirning tabiiyligini oshiradi. Tasviriy aksent berishi-mizga esa

manashu manatu ranglarning munosabatlarini oz-moz o'zgartirish bilan erishsak bo'ladi.

3) yorug'lik va koloristik xal kilinishlarni o'zgartirish kuyidagicha, bunda aloxidagi kadrlarning tasvirga olish yo'nalishini o'zgartirish bilan amalga oshiriladi.

4) xavodagi tutun va xavoning yengil bulutlar bilan qoplanganligi yorug'likning sochilishiga sabab bo'ladi va shu tufayli tasvirga olish yo'nalishini uzgartirishimizga imkoniyat beradi.

5) osmondagi bulutlar nafaqat yorug'lik rangini o'zgartiradi balki fonning ifodasini oldingi plandagi obyektga moslashtirib beradi.

Yoritgichlarni belgilashda xox u sun'iy bo'lsin xox tabiiy, ularni risuyushiy, zapolnyayushiy, fonovoy, modeliruyushiy va kontrovoy turlarga ajratamiz.


Risuyushiy (asosiy) yorug'lik bu tasvirga olinayotgan obyektga asosiy yorug'lik sifatida yoritiladi. Bu yorug'lik bilan obyektning formasi kursatiladi va rangli aksent xosil kilinadi. Tasvirga olish liniyasiga munosib xolda risuyushiy yorug'lik bir necha yunalishga joylashadi ya'ni old yorug'lik (frontal yorug'lik), yon, old-yon, orqa-yon, va kontravoy. Yorug'lik joylashishining baland pastligiga qarab yuqori risuyushiy va pastgi risuyushiy xam deyiladi.



Tabiiy sharoitda risuyushiy yorug‘lik bilan tasvirga olishda quyosh nuri tugri yunaltirilgan xolda yoki bulutlar orqali sochiq xolda obyektga tushadi. Risuyushiy yorug‘lik tabiatda o‘zgarish xususiyatiga ega.

Masalan: atmosferaning xolatiga, quyoshning gorizont ustidagi joylashishiga qarab va kuyosh atrofidagi nur sochish maydoniga qarab uning rangi o'zgaradi. Xavodagi tutun mikdori va uning zichligi ortishi bilan manashu nur sochish maydoni kengayada ya'ni bizga shu xolatda ko'rinadi va soya konturi shu tushayotgan yorug'lik rangi, to'g'riligiga qarab uning keskinligi ortadi yoki kamayadi.

Zapolnyayushiy (to'ldiruvchi) yorug'lik bu obyektning yorug'lik kam bo'lgan joyini yorituvchi yorug'lik turi xisoblanadi va u keskin bulmagan soya qoldirishi zarur. Tabiyatda tasvirga olish jarayonida to'ldiruvchi yorug'lik, asosan moviy osmon yordamida, va quyosh nurini qaytaruvchi bulutlar yordamida va shu bilan birga to'ldiruvchi yorug'lik yerga tushayotgan yorug'likning qaytarishi va yer ustidagi barcha obyektlardan qaytayotgan yorug'lik tufayli xam xosil bo'ladi. Shuning uchun xam ba'zi paytlarda tasvirga olayotganimizda yerdan va osmondan qaytayotgan yorug'liklarning ranglari o'rtasida oz-moz o'zgarishlar sodir bo'lib turadi.



Modeliruyushiy yorug'lik. Bu yorug'lik yordamida obyektning formasi va obyektning rangi va ton perspektivasining o'zgarishi ham to'liq ko'rsatib beriladi. Tabiiy sharoitda tasvirga olinayotgan paytda modeliruyushiy yorug'lik qo'shimcha yoritgichlar va yorug'lik qaytaruvchi moslamalar bilan chiqarib beriladi. Modeliruyushiy yorug'lik sun'iy yoritgichlar yordamida uzatilsa u xolda yorug'likning rangini qo'shimcha svetofiltrlar yordamida xosil kilinadi agar modeliruyushiy yorug'likni tabiiy yorug'likdan foydalanib yorug'lik qaytargichlar bilan xosil kilinsa u xolda rangli qaytargichlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.



Kontrovoy yorug'likdan foydalanishdan maqsad bunda birinchi plandagi obyektни fondan ajratib berishdir xamda



tasvirga olinayotgan saxnada tutun mavjud bo'lsa yoki tabiatning o'zi xosil kilgan tuman bo'lsa u xolda kontrovoy



yorug'lik ma'lum bir xarakter berish uchun va fon perspektivasini ochib berishda ishlatiladi.

Tabiiy sharoitda tasirga olayotgan paytda kontrovoy yorug'lik maxsus sun'iy yoritgichlar yordamida kamdan kam xosil kilinadi asosan kontrovoy yorug'lik quyosh nurlaridan foydalanilgan xolda xosil kilinadi.


Fon yorug'ligidan kinooperatorlarimiz oldingi obyekt yorug'ligining rangi va fon yorug'ligining rangi bilan moslashtirgan xolda foydalanishadi. Tabiiy sharoitda fonta osmondan tushayotgan yorug'lik yordamida va quyoshning to'g'ridan-to'g'ri soya xosil kilgan nuridan foydalanishadi. Tabiiy sharoitda tasvirga olayotganda bulutli osmon ba'zi tasvirlarda birinchi planga Qaraganda fonning yorug'ligi rangli bo'lib qoladi.



Tabiiy yorug'lik xarakteristikasi. Tabiiy yorug'lik uch xil turli rangdagi yorug'lik nuri tufayli xosil bo'ladi ya'ni 1) quyoshdan tushayotgan to'g'ri nur, 2) bulutlar va xavo tutnlari orqali o'tayotgan tarqoq nur, 3) quyoshning, moviy osmon orqali qaytayotgan tarqoq

nurlari. Shunday turdagi yorug'lik nurlarining yig'indisi bizga turli xarakteristikadagi tabiiy yorug'likni beradi. Yuqorida aytib o'tganimizdek tabiiy yorug'lik ikki rangdan tashkil topadi; to'g'ri quyoshning oq nuri va quyosh nurining moviy osmondan qaytayotgan xavorang sifat yorug'ligidir.

Ertalabki xavoda tasvirga olish. Rangli tasvirga olishning eng yaxshi vaqti bu ertalabki xavodir. Ertalabki vaqtda soyalar juda tiniq bo'ladi va yerdan uncha balan bo'lmagan xovodagi tugun perspektiva xosil qiladi. Gorizont to'g'ri bo'lgan risuyushiy yorug'likning ortishi tufayli yerning ustki qismida rangli nurlarning ortishi kutiladi. Ertalabki xovo tutunlari ranglarni uyg'unlashtirib xavorangsifat yoki qizg'ishroq xavorang kolorit xosil qiladi. Gorizontdan 25-30



gradus burchak ostida tasvirga olingan kinoepizotlarga etibor bersak ular yanada iliqroq tasvirga va tillorang-sarg'ish koloritga ega bo'ladi. Quyosh gorizondan qanchalik ko'tarilsa tasvir shuncha yorqinlashib boradi.

Kunning yarmida tasvirga olish. Quyosh gorizontnig eng yuqori nuqtasiga yetganda yerning xarorati oshib yerdagi xavo tutunlari asta sekinlik bilan yo‘qoli boradi. Bunday paytda yumshoq bo‘lgan yorug‘lik o‘rniga kunduzgi kontrastli yorug‘lik keladi.

Bunda soya va yorug‘lik o‘rtasidagi interval ortib obyektning yuqori qismi yoritilib pastki qismlari soyada qolib ko‘rinmay ketadi. Shu bilan birga yorug‘lik rangi xam keskin o‘zgaradi.

Kunduzgi tasvirga olish ishlarida kinooperator ko‘pincha quyoshni kontrovoy yorug‘lik sifatida foydalanadi sababi aktyorning ko‘zlariga xalaqig qilmaslik uchun. Uning formasi esa qaytarilgan yorug‘liklar yordamida yoritiladi.



Quyoshni old tomondan yoki yondan foydalanilganda kinooperator soyani susaytirish uchun u kerakli bo‘lgan matolardan foydalanadi. Natija juda qoniqarli chiqadi.



O'rmonzorda tasvirga olish. O'rmonda tasvirga olishda eng qulay payt bu kunning yarmidir. Chunki kunning boshida va kunnig oxirida o'rmonda yorug'lik juda kam bo'ladi. Rangli tasvirga olishda ba'zi paytlarda yozning ochiq xavosida o'rmonda yorug'lik kamligi yaxshigina sezilib turadi. Shunday paytda kinooperator ekspozitsiyani kuchaytirishga majbur bo'ladi.

O'rmonda rangli tasvirga olishda urmonning so'qmoqlarida va osmon ko'rinib turadigan joylari kinooperatorga ancha yordam beradi. Yanada yaxshi natijalarga erishish uchun o'rmon chetlarini tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki u yerda bemaolol yorug'lik qaytargichlaridan foydalanish mumkin.



Bulutli xavoda tasvirga olish. Bulutli xavoda yorug‘likning keskinligi kamayib mayinligi ortadi. Bulutning zichligi oshishi bilan yorug‘lik turlarining ranglari bir xillashib boradi (risuyushiy, zapolnyayushiy v.x.k.). Yorug‘lik intervali kamayib xamma yoqqa bir xil rangdagi yorug‘lik tarqaladi.



Bulutli xavoda nurning sochilishi va rangi ortadi. Masalan; sariq nur, to'qsariq va xatto kizil ranglarga bo'linadi. Shuning uchun osmonni quyuq bulut koplaganda nurning rangi ko'kimtirdan kulrashtacha yoki kulrangsifat qizil ranglarga o'zgaradi.

XULOSA

Kinooperator san'ati badiiy ijod qilishda turli va murakkab texnikani film olish jarayonida moxirona qo'llanishidir. Zamonaviy texnik vositalar operator uchun amalda postanovkaga rejalangan yozilgan ssenariydagi tafakkur va tasavvurlarni tasvirga tushirishdir.

Shu bilan birga tasvirga olishdagi texnikani chuqur bilganligi dramaturgik va tasviriy masalalarning yechimini topishdagi, uning imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga qaratilgandir.

Mazkur uslubiy qo'llanmada operatorning faqatgina badiiy asar yaratishiga qaratilmay, izchillik bilan ko'p kameralarda ishlash muammolari xamda uning uslublarini ochishga bo'lgan urinish natijasi.


Operatorning tasvirga olish nuqtalari, obyektivlarning fokus masofalarini tanlash va aniqlashga katta etibor qaratilgan. Kino tasvirga olish jarayonida, olinajak obyektning yoritilishi natijada nurlar tarqalishi kontrastning o'zgarish qonuniyatlari xam ko'rib chiqilgan. Bu masala yuzasidan shuni xam aytish kerakki, umumiy kontrast tushishi bilan qiyofalanmay balki detallar yoritishidan xosil bo'lgan yorug'lik va soyalarning muvozanati yoki proporsiyasi buzilishiga ham e'tibor berilgan. Filmlar ishlab chiqishda ko'p kameralar bilan faoliyat olib borish uchun televizion texnika va tasvirni magnit lentasiga tushirish, asosan repetitsiyalarni kuzatish va nazorat ishlariga qaratilgan. Ba'zi kinotelevizion sistemalar xaqida ma'lumotlar ham beriladi.

Nazariy qarashlar va amaliy kinoteleoperatorlik bo'limi talabalari uchun "Fotokompozitsiya asoslari" fani asosida tayyorlangan o'quv-mashq film ko'rsatiladi va taxlil qilinadi.

Filmda “Fotokompozitsiya asoslari”ga qaratilgan nazariy masalalar hamda chiroq bilan ishlash uslublari ham namoyish etilishi mo‘ljallangan.

Ushbu ijodiy foto ishlar “Kinoteleoperatorlik” bo‘limi talabalari tomonidan suratga olingan.







FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ismailov A.I.«Kinoteleoperatorskoye masterstvo» Tashkent 2004.
2. Golovnya A. D. «Masterstvo kinooperatora» Moskva, 1966 g.
3. Kosmatov L.V. «Masterstvo kinooperatora» Moskva, 1967 g.
4. Golovnya A.D “Svet v iskusstve operatora”. Goskinoizdat, M., 1952
5. Andrikanis YE. “Zapiski kinooperatora» M., Iskustvo, 1956.
6. Ilin R. “Izobrazitelniye rakursi ekrana”. VGIK, NIK, 1971.
7. Kosmatov L.V. “Texnika pavilyonnoy syemki, v kino” «Svetnaya kinematografiya», M.. Iskustvo», 1955, gl.6, s. 114-163.
8. Konoplev B. «Osnovi film proizvodstva» M.. Iskustvo. 1975.
9. Goryunova G. “Organizatsiya proizvodstva kinofilmov.” M.Iskustvo. 1983.
10. Gromov YE. “Kinooperator A.Golovnya”. Iskustvo. 1981.
11. Ilin R. “Yuriy Yekelchik” Iskustvo. 1962.
12. Medinskiy S. “Masterstvo operatora xronikalno – dokumen-talnix filmov” Iskustvo, 1984.
13. Vasilkov I. “Nauchno – populyarniy film. Etapi stanov-leniya”. M. VGIK, 1979.
14. Veysman YE. “Nauchnoye kino i formirovaniye materialisticheskogo mirovozzreniya”. V sb.: Kino i nauka, M.. Iskustvo, 1970.
15. Smirnov B. “Kinosyemka startov kosmicheskix raket”, J: «Texnika k kino i televideniya», L 9. 1974.

